



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

4. Логинова, А. В. Смешанное обучение: преимущества, ограничения и опасения [Текст] / А. В. Логинова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 7 (87). — с. 809-811.

5. Соболянова Е.А., Заиграва Н.А. Потенциал смешанного обучения иностранному языку [Текст] // Иностранные языки в школе. — 2020. — №7. — с.2-6.

JADIDLAR MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Meyrxan Spanov

Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti dotsenti,

Islom Xosilmurodov

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali assistenti,

Gulnoz Akbo'tayeva

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati, ularning vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik va yoshlar tarbiyasidagi o'rni yoritiladi hamda ularning yangicha qarashlarinig yoshlar tarbiyasidagi o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada jadidchilik merosining bugungi zamon yoshlari tarbiyasi va dunyoqarashini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'z: jadidlar, yoshlar tarbiyasi, jadidchilik, ma'naviy tarbiya, ta'lim islohotlari, o'zlikni anglash, zamonaviylik, tarixiy meros, ta'lim-tarbiya, taraqqiyot.

Yoshlar ma'naviyati har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Ma'naviy barkamol, bilimli va ongli yoshlar – kelajak poydevori hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'z davrida xalqni uyg'otish, ilm-ma'rifatga chorlash yo'lida xizmat qilgan jadidlarning o'rni beqiyosdir.

Jadidlar ma'rifatparvarlik g'oyalari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston zaminida taraqqiyot, ozodlik va milliy uyg'onishning asosiy omili sifatida maydonga chiqdi. Ularning asosiy maqsadi yoshlarni ilmi, zamonaviy dunyoqarashga ega va vatanparvar qilib tarbiyalash edi. Jadidlar nafaqat ilm-fanga, balki axloq, madaniyat va milliy o'zlikni anglashga ham katta e'tibor qaratganlar.

Ularning fikricha, jamiyatni rivojlantirish uchun avvalo yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash zarur edi. Shu sababli ular gazeta va jurnallar chiqargan, teatr asarlari yozgan, xalqni jaholatdan chiqarishga harakat qilganlar. Jadidlar yoshlarni vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik va bilim olishga intilish ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat berganlar.

Jadidlar ma'rifatparvarlik g'oyalarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Ta'lim va ma'rifat – taraqqiyotning asosi

➤ Jadidlar “ilm-fan va ma’rifat”siz millat rivojlanmasligini uqtirganlar. Ular eski maktablarni isloh qilib, dunyoviy fanlar o’qitiladigan usuli jadid (yangi usul) maktablarini tashkil etishgan.

➤ Yoshlarga nafaqat diniy, balki zamonaviy fanlar (matematika, geografiya, tarix, tillar)ni o’rgatish orqali ularni zamon talablariga mos kadrlar qilib yetishtirishni maqsad qilganlar.

2. Milliy o’zlikni anglash va Vatanparvarlik

➤ Jadidlar yoshlarni o’z tarixini, tili va madaniyatini sevishga, milliy o’zligini anglashga chaqirganlar.

➤ Ularning fikricha, komil inson – bu ham jismonan, ham ma’nan, ham ilmda barkamol bo’lgan, Vatan ravnaqi uchun kurashuvchi shaxsdir.

3. Axloqiy tarbiya va madaniy yuksalish

➤ Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari kabi asarlar yoshlarni halollik, mehnatsevarlik, ozodalik va insoniylikka o’rgatgan.

➤ Jadidlar teatr va matbuot (gazeta-jurnallar) orqali xalqning, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga, ularni jadidchilik g’oyalari targ’ib qilishga harakat qilishgan.

4. Yoshlar tarbiyasidagi o’rni va ahamiyati (bugungi kun uchun)

➤ Jadidlar merosi bugungi kunda yoshlar ongida milliy g’urur va vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirishda poydevor hisoblanadi.

➤ Jadidlarning ta’limga bo’lgan yondashuvi yoshlarni zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni egallashga undaydi.

➤ Jadidlar yoshlarni jamiyatdagi muammolarga befarq bo’lmaslikka, ma’rifat orqali jamiyatni rivojlantirishga chorlagan.

Jadidchilik harakati – bu faqat o’tmishdagi tarixiy voqea emas, balki jamiyatning uyg’onishi, o’zligini anglash va kelajak sari intilishining ramzidir. U bizga milliy o’zlikni anglash, fikr erkinligi, zamonaviy ta’limga intilish kabi ko’plab ibratli saboqlarni taqdim etadi. Jadidlar o’z harakati bilan har bir kishining hayotida bilim, tafakkur va mas’uliyat muhim o’rin tutishini amalda isbotlab berganlar.

Jumladan, Mahmudxo’ja Behbudiy o’z faoliyatida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’limni dunyoviy lashtirish, o’qituvchilarni yangi metodika asosida tayyorlash, qizlar ta’limiga e’tibor berish g’oyalari ilgari suradi. Uning fikricha: “Millatning najoti —maktab va ma’rifatda”.

Abdullo Avloniy ta’lim tarbiyani inson hayoti uchun juda muhim deb bilgan. Uning yoshlarimiz tarbiyasi xaqidagi quyidagi so’zlari e’tiborga molikdir: “Tarbiyani tug’ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrlarimizni nurlantirmoq, axloqimizni go’zallantirmoq, zexnimizni ravshanlantirmoq lozim ekan. Tarbiyani kim qiladi? Qayerda qiladi? degan savol keladi. Bu savolga: Birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir... Xulosa shuki, tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat yo falokat masalasidir”[1], degan so’zlari bugungi globallashuv jarayonida naqadar ahamiyatlidir. Buyuk ma’rifatparvarning bu so’zlari o’z davrida xalqimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo’lgan bo’lsa hozirgi jamiyatimizda ham biz uchun shunchalik dolzarbdir.

Bugungi kunda ham jadidlar merosi o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning ilg'or g'oyalari yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yoshlarni global dunyoda o'z o'rnini topishga yo'naltirishda jadidlar tajribasi dolzarbdir.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlar turli xil axborot oqimlari ta'sirida qolmoqda. Bunday sharoitda ularning ma'naviyatini mustahkamlash, to'g'ri yo'lga yo'naltirish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtada jadidlar merosi biz uchun bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning ilmga intilish, milliy qadriyatlarga hurmat va zamonaviylikka ochiqlik kabi g'oyalari bugungi yoshlar uchun ham dolzarbdir.

Xulosa qilib aytganda, Jadidlar ma'rifatparvarlik g'oyalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ular yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, bilimli, vatanparvar va milliy qadriyatlarni hurmat qiladigan shaxs sifatida voyaga yetkazishda asosiy ma'naviy-ma'rifiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdulla Avloniy. Jadidlar to'plami kitobi "Yoshlar nashriyoti uyi, 2022 84-85-betlar.
2. Islom X. Kalandarov Mexroj Abu Nasr Farobiy Falsafasida axloq masalasi //Pedagog respublika ilmiy jurnali. – 2023. – T. 15.
3. Hasilmurodov I. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING //WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. – 2022.
4. Xamitolim o'g'li X. I. Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. "Mantiq ilmini o'rganishning ahamiyati". Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy va pedagogik-psixologik asoslari. – 2022.
5. Xamitolim o'g'li X. I. O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati //Jamiyat va innovatsiyalar. – 2021.
6. Xamitolim o'g'li X. I. Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. "Tafakkur uslubining falsafiy-metodologik tahlili". "Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dalzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar" Ilmiy-amaliy konferensiya 2022 yil.
7. Islam H. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – C. 11.

O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI TUSHUNCHASINING MAZMUN MOHIYATI

Primov Sherzod Kuvandikovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedراس dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)